

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



**23.00.02 – “SIYOSIY INSTITUTLAR, JARAYONLAR VA  
TEXNOLOGIYALAR” IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH  
DOKTORANTURAGA “MUTAXASSISLIK” FANIDAN QABUL  
IMTIHONI DASTURI**

Dastur Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan (2024-yil 5-oktabrdagi 2 - sonli bayonnomasi).

**Tuzuvchilar:**

siyosiy fanlar doktori, professor – S.A.Jo‘rayev  
siyosiy fanlar doktori, dotsent – D.I.Madaminova

**Taqrizchilar:**

siyosiy fanlar doktori, professor – Sh.A.Yovqochev  
siyosiy fanlar doktori, dotsent – F.E.Karimov

## **KIRISH**

Mazkur namunaviy dastur 23.00.02. - Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi talablaridan kelib chiqqan holda tayyorlangan. Dastur o‘z ichiga siyosatshunoslikning konseptual asoslaridan kelib chiquvchi siyosiy, ijtimoiy institutlar va jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy masalalarini o‘z ichiga qamrab olgan. Dasturda siyosiy g‘oyalar va ularning vujudga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarga alohida o‘rin ajratilgan.

Dastur doirasida davlat hamda uning institutlari paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan tarixiy vaziyat, davlatchilik, siyosat, siyosiy tizim, siyosiy partiyalar, siyosiy mafkuralar evolyusiyasiga oid bo‘lgan masalalarga alohida o‘rin ajratilgan. Dastur o‘z ichiga o‘n to‘rtta mavzuni qamrab oladi.

## **ASOSIY QISM** **SIYOSATSHUNOSLIK FAN SIFATIDA:** **UNING OBEKTI VA PREDMETI**

Insoniyat tarixida ijtimoiy hayotning murakkablashuvi jarayoni va mehnat taqsimotining shakllanishi. Tafakkur olamida siyosat tushunchasiga doir tadqiqotlarning paydo bo‘lishi. Siyosat nazariya va amaliyat sifatida. Siyosatning kishilar manfaatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish, jamiyat yaxlitligini saqlash borasidagi ahamiyati. Insoniyat tarixida davlat, byurokratik apparat, armiya kabi institutlarning vujudga kelishi. Siyosiy tafakkur va siyosat to‘g‘risidagi bilimlarning shakllanish tarixi. Insoniyat oldida siyosat olamidagi o‘zgarishlarning murakkabligini his qilish, idrok etish. Optimal siyosiy faoliyat. Siyosiy dastur va konsepsiylar ishlab chiqish. Siyosiy taraqqiyotning gumanistik loyihalarini tadbiq etish masalasining dolzarblashuvi.

Siyosat haqidagi bilimlarning o‘zlashtirilishi. Siyosatning jamiyat hayotidagi o‘rni va rolini anglashga doir intilishning kuchayishi. Davlat miqyosidagi maqsadlarni belgilab olish muammolari. Siyosatning mazmuni. Siyosiy faoliyatni amalga oshirish va siyosiy qarorlar qabul qilishga ta’sir qiluvchi omillar. Hokimiyat va siyosiy boshqaruvi, siyosiy tizimlar, jarayonlar, munosabatlar, siyosiy ong va siyosiy madaniyat. Siyosatshunoslik fanini o‘rni va ahamiyati. Siyosatshunoslikning fan sifatida insoniyatga, jamiyatning siyosiy hayotiga ta’siri. Fuqarolarni ijtimoiy taraqqiyot qonunlaridan boxabar qilish qobiliyati. Siyosatning ilmiy asoslari. Siyosiy muammolarni tizimli tadqiq etish. Siyosatshunoslik – siyosiy institut va jarayonlar, siyosiy madaniyat, xalqaro tizimlar, uning mexanizm va vositalarini o‘rganadigan fan. Siyosatshunoslik fanini o‘qitish orqali talabalarga siyosatning umumiy qonuniyatlarini ochib berish. Siyosiy vaziyatni tushunish va baholash ko‘nikmasini shakllantirish. Siyosatshunoslik fani doirasida siyosiy tajribalarni umumlashtirish. Siyosatshunoslik fanini o‘zlashtirish orqali talabalarni mas’uliyatli qarorlar qabul kiluvchi mustaqil siyosat sub’ektlariga aylantirish. Siyosiy jarayonlarda faol va erkin ishtirok etish malakasini yuksaltirish. Siyosatshunoslik fanida demokratiya, uning nazariy asoslari, demokratik jamiyat qurishning umumjahon va milliy tajribalarini chuqur o‘rganish talablari.

Yoshlarda mafkuraviy immunitet va g‘oyaviy kurashuvchanlik fazilatlarini shakllantirishning siyosatshunoslik bilan o‘zaro aloqadorligi. Siyosiy tafakkur va siyosiy faollik. Milliy siyosatshunoslikning rivojidagi davomiylik, vorisiylik va uzviylik. Zamonaviy milliy siyosatshunoslikdagi yondashuvlar.

### **SIYOSIY QARASHLAR VA TA’LIMOTLAR. SHARQ SIYOSIY TAFAKKURI: ASOTIRDAN SIYOSIY BOSHQARUV FANIGACHA**

Davlatchilik rivoji xaqidagi siyosiy ta’limotlar tasnifi. Aflatun (er.av. 427–347) qadimgi yunon faylasufi. («Davlat», «Siyosatchi», «Qonunlar», «Sofist» asarlar muallifi. Arastu – (m.a. 384–322) qadimgi yunon faylasufi. «Siyosat», «Etika», «Ritorika» asarlarining mazmun va mohityati. Uyg‘onish davri mutafakkirlari. Nikola Makiavellining (1469–1527) siyosiy qarashlari. «Hukmdor» va «Florensiya tarixi» asarlarining mazmun va mohiyati. Jan Jak Boden (1530–1596) va Tomas Gobbslarning (1588–1679) siyosiy qarashlari. «Tabiiy va siyosiy qonunlardan parchalar» va «Fuqaro to‘g‘risida». Sharl Lui Monteske (1689–1755) – fransiyalik faylasuf, tarixchi olim. Olimning «Rumliklar

buyukligi va inqirozi sabablari to‘g‘risida» asari. Jan Jak Russo (1712–1778) – fransuz faylasufi, sotsiologi, ma’rifatparvari. «Odamlar o‘rtasida tengsizlikning kelib chiqishi va asoslari to‘g‘risida mulohazalar», «Ijtimoiy bitim», «Emilp yoki tarbiya to‘g‘risida» asarlari. Tomas Myunser (1490-1525), Tomas Mor (1478–1535), Tomazzo Kampanella (1568–1639), Tomas Peyni (1737–1809), Tomas Jefferson (1743–1826), A. Tokvil (1805–1858) kabi olim va siyosatchilarining merosi.

Sharq siyosiy tafakkuri an’analari. Sharq siyosiy manbalari. Siyosiy bilimlar doirasida sabr-toqatli bo‘lishga undash, hokimiyatga itoat qilishga chaqirish, kattalarga hurmat, ustozni muqaddas deb bilish, mexnatsevarlik, jamoaviylik kabi qadriyatilarni yoshlar ongiga singdirish muammolari. Odil hukmdorga ishonch, davlat va jamiyat munosabatlarining ota-bola munosabatlariga qiyos qililinishi (paternalizm), siyosatni diniy asoslarga ko‘ra talqin qilish, illatlarga qarshi tarbiya yo‘li bilan kurash. Sharq siyosiy tafakkuridagi ustuvor yo‘nalishlar.

Hindistonning qadimiy manbalaridan biri - Vedalar. Hindistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti. Xitoy faylasufi va siyosiy arbobi Konfutsiy (er.av -551-479 yillar)ning siyosiy ta’limoti. Konfutsiylik g‘oyalari. Hukmdorni xalqning tarbiyachisi sifatida, davlatni qudratli tarbiya idorasi sifatida, rag‘batlantirish va jazolashni tarbiya vositalari sifatida tushunish. Arab siyosiy tafakkuridan o‘rin olgan g‘oyalari. Arab Xalifaligi, qur‘on va shariat bilan bevosita bog‘liqligi. Al-Movardiy, Ibn-al-Azroh, G‘azzoliy kabi mutafakkirlarning «Sultonlarga nasihatlar» qabilida yozilgan risolalari. Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri sifatida. Movarounnahrda paydo bo‘lgan ulkan madaniy meros. «Avesto»da ilgari surilgan g‘oyalarning siyosiy mohiyati.

IX va XIII asrlarda O‘rta Osiyo xalqlari o‘z mustaqilligi yo‘lidagi kurashlari va intilishlari. Movarounnahrlik mutafakkirlar. Islom olimlari – Moturudiy, Buxoriy, Termiziy, Nasafiy, Yassaviy, Pahlavon Mahmud, tabiatshunos olimlar – Xorazmiy, Farg‘oniy, Jurjoniyalar, qomusiy bilim egalari – Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqalarning o‘z davrining yetuk qomusiy bilimdonlari sifatida maydonga chiqishi. Rumiy, Firdavsiy, Rudakiy, Nosir Xusrav, Umar Xayyom, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Narshaxiy kabi faylasuf, tarixchi, shoirlar. Davlatchilik rivojida yangi nazariy qarashlar va ta’limotlarning vujudga kelishi. Ilk Sharq uyg‘onish davrining buyuk mutafakkirlari. Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asari. XI asrda yashab ijod qilgan Zayniddin Muhammad G‘azzoliyning «Kimyoi saodat» asarida jamiyat va inson masalasi.

Davlat va uning boshqaruviga oid siyosiy qarashlar Yusuf Xos Hojib ijodida. «Qutadg‘u bilig» – ijtimoiy-falsafiy asar. Ibn Sino O‘rta Osiyo tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlarning buyuk namoyandas. O‘rta asrlar mutafakkiri Nizomulmulkning «Siyosatnama» asari. Vijdon, adolat kabi inson ruhiyatini poklash orqali hurriyatga chorlash g‘oyalari. Tasavvuf ta’limoti asosida adolat, haqiqat, to‘g‘rilik, mehr-shafqat, insof, imon, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi umuminsoniy g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi diniy siyosiy oqimlarning paydo bo‘lishi. Tasavvuf falsafasining buyuk namoyandalari Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro, Xoja Ahror, Bahouddin Naqshband, Sayyid Amir Kulol qarashlari. Amir Temurning siyosiy sahnaga kelishi va mustaqil davlat barpo etishi. Amir Temurning adolatpeshalik fazilati. «Temur tuzuklari». Davlatchilik tuzuklarining yaratilishi. Alisher Navoiy va uning asarlarida jamiyat boshqaruvi va axloq. Alisher Navoiyning siyosiy qarashlari. Xoja Samandar Termiziy. «Dastur ul-muluk» asari. Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistondagi faoliyati.

Mashrab va So‘fi Olloyor, Nodira, Uvaysiy, Dilshod, Komil Xorazmiy, Avaz O‘tar, Ahmad Donish, Muqimiy, Ogahiy, Furqat, Mulla Olim Maxdum Hoji ijodiyoti.

Jadidchilik va jadidlar harakatining faoliyati. Jadidlar ijtimoiy tuzumni o‘zgartirish yo‘lida. Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘lining «Xotiralarim», Behbudiy, Fitrat, Avloniy asarlari. Jadidlarning milliy-madaniy muxtoriyat qurilishi to‘g‘risidagi tamoyillari. Insonni ulug‘lash, uning aqliy, tabiiy, ma’naviy fazilatlarini asoslash, insonparvarlik, yuksak axloqiy qonun-qoidalari namoyon etilishi.

## **SIYOSIY HOKIMIYAT**

Siyosiy hokimiyatning tabiatini va o‘ziga xos xususiyatlari. Hozirgi paytda hokimiyat munosabatlarida bilimning o‘rni va ahamiyati. Hokimiyat uchun kurashda siyosiy bilimning ahamiyati.

Jamiyatni boshqarish tamoyillari va mexanizmlari. Davlat hokimiyatining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy muammolari. Jamiyatning siyosiy sohasini uning asosiy resursi – hokimiyat orqali shakllantirilishi. Hokimiyat – siyosiy fanlarning markaziy kategoriyalardan biri. Hokimiyat siyosatning o‘zagi sifatida. Davlat hokimiyatni muammosi siyosatning asosiy muammosiga aylanishi. Siyosiy hokimiyat nazariyasi. Hokimiyatga intilishning inson ruhiyati va ongi bilan bog‘liqligi. Hokimiyatga intilish inson siyosiy faolligini belgilovchi omil sifatida. Zamonaviy globallashuv davrida hokimiyatga intilayotgan inson uchun hokimiyat – o‘z siyosiy ahvolini, maqomini yaxshilash manbaiga aylanishi. Hokimiyatning yangi shakli, yangi sifati haqida. Davlat hokimiyatni eng obro‘li va eng yaxshi tashkil qilingan jamiyat instituti. Hokimiyat ta’sir o‘tkazishning o‘ziga hos turi. Muayyan maqsadlarni amalga oshirish imkoniyati. U yoki bu vositalardan foydalanish imkoniyati. Boshqaruvchi va boshqarilayotganlar o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabatlar.

Hokimiyat resurslari va strukturasi. Hokimiyatning asosiy komponentlari. Hokimiyatning sub’ekti. Hokimiyat sub’ekti – hoxish-istak, manfaatlar va topshiriqlar ijrochisi sifatida. Hokimiyat – o‘z ob’ektini bo‘ysundiruvchi kuch, hukm o‘tkazish, bo‘ysundirishga qaratilgan bir qator omillardan tarkib topishi. «Hokimiyat», «siyosiy hokimiyat», «davlat hokimiyat» tushunchasi, o‘zaro munosabati, umumiy va farqli jihatlari. Siyosiy hokimiyat sub’ektlari: fuqaro, davlat va nodavlat institutlar, siyosiy-ijtimoiy tashkilotlar, siyosiy partiyalar, ijtimoiy guruhlar, ularning o‘zaro munosabati. Ularni idora etish yoki ta’sir doirasiga ega bo‘lish imkoniyatlari. Hokimiyatga ega bo‘lish omillari: shaxsiy sifatlar. Xulq-atvor me’yorlari. Ijtimoiy-siyosiy fazilatlar. Siyosiy obro‘. Legitimlilik. Hokimiyatga ega bo‘lishning oshkora, rasmiy va yashirin ko‘rinishlari va o‘ziga xosligi. Davlat hokimiyat – idora etishning o‘ziga xos vositasi. Majburiylik, kuch ishlatishdan foydalanishning faqat davlat hokimiyatiga xosligi. Siyosiy rejim. Idora etishning, hokimiyatga ega bo‘lishning avtoritar va demokratik usullari.

## **DAVLAT SIYOSIY INSTITUT SIFATIDA**

Zamonaviy davlat tushunchasi. Davlat siyosatining jamiyat siyosiy faoliyati tizimidagi ustuvor mavqeい. Davlat – jamiyat siyosiy tiziminining muhim va tarkibiy qismi. Davlatning fuqarolar siyosiy faolligi orqali qudratli kuch timsoliga aylanib borishi. Davlat atamasi. Davlatning maksimal hokimiyat to‘play olishi. Davlat va jamiyat atamalari o‘rtasida farqni ko‘rsatib bergen dastlabki olimlar. Davlat jamiyat siyosiy tiziminining

markaziy instituti. Davlatning yagona hududga ega bo‘lishi va uni boshqarishda xalqning ko‘pchiligi tomonidan qonunlar orqali shakllanishi. Mesopatomiya, Xitoy, Hindiston, Rim, Gresiya kabi qadimgi davlatlar. Davlatlarning muhim belgilari va funksiyalari. Siyosiy institatlardan davlatning farqi. Davlat jamiyatning yahlitligini ta’minlovchi va jamiyat hayotini uyushtiruvchi kuch sifatida.

Zamonaviy davlatning asosiy funksiyalari: ichki va tashqi funksiyalar. Davlatning hududiy tashkil topishi. Davlatlarning unitar (yagona davlat) birlashmalari, federatsiya va konfederatsiyalarga bo‘linishi. Davlatning ijtimoiy hodisa sifatida mohiyati. Davlat – bu siyosiy yaxlitlik. Davlat jamiyat boshqaruvini professional jihatdan boshqaruvga ega bo‘lgan mahsus ijtimoiy apparat. Davlat hokimiyatini tashkil qilish strukturasi va tizimi. Davlat boshqaruv shakli. Davlat va konstitutsiya. Hokimiyatning bo‘linishi. Davlat raxbari, davlat institatlari, davlat apparati. Boshqaruv shakllari va siyosiy rejimlar: monarxiya va respublika. Boshqaruvning avtoritar, totalitar va demokratik shakllari. Boshqaruvning monarxiya usuli.

Davlat va jamiyat munosabaatlari. Davlatning inson, jamoat birlashmalari faoliyatiga asossiz aralashuviga yo‘l qo‘ymaslik tamoyillari. Zamonaviy davlatlar taraqqiyotidagi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar: etatik va g‘ayrietalik. Davlat rolining kuchayishi. Davlatning masifikasi va davlatning haddan tashqari o‘sib ketishi (gipertrofiya). Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining o‘zaro aloqadorligi. Davlatning zamonaviylashuvi va taraqqiyoti tamoyillari.

## SIYOSIY REJIM VA SIYOSIY JARAYON

Siyosiy rejimlar va jamiyatning *siyosiy hayoti*. Uning o‘zgaruvchanligi, barqarorligi, davomiyligi. Hokimiyat uchun kurash va uni ushlab qolish mexanizmi. Siyosiy rejimning kulminatsion nuqtasi. *Siyosiy hayotdagi aks-sado*, uning ko‘rinishlari, ta’riflari. Jamiyatda siyosiy hayotning faollashuvi. Ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalarda qarorlarning qabul qilinishi, ularning davlat- jamiyat munosabatlarida namoyon bo‘lishi. Siyosiy jarayon siyosiy hokimiyat burchlarining mohiyatini ochib berishi. Siyosiy jarayon siyosiy tizim evolyusiyasining harakatlar tasnifi sifatida. Saylov, referendumlar, siyosiy partiyalarga a’zolik va ularda ishtirok etish. Siyosiy liderlar va elita tomonidan boshqaruv qarorlari. Jamiyat ichki hayotida siyosiy jarayon. Siyosiy jarayonlar yo‘nalishlari. Barqaror va beqaror siyosiy jarayonlar. Jamiyatdagi siyosiy konfliktlar mavzusi. Siyosiy tizim yo‘nalishlarining ijobiyligi. Siyosiy hayotning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, hududiy va geografik omillar ta’sirida shakllanishi. Siyosiy hayotning dinamikasi va evolyusiyasiga ta’sir qiluvchi omillar. Mamlakat siyosiy hayoti va uning siyosiy tizimi. Mamlakatdagi siyosiy hayot mazmunini anglash, idrok etish. Siyosiy hayotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir o‘tkazuvchi siyosiy texnologiyalar. Siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayonida siyosiy ishtirok etish masalasi. Siyosiy faoliyatning murakkab qo‘pqirrali tabiatni siyosiy jarayonlar tahlilida. Siyosiy jarayonlar tahlilida hokimiyatga intiluvchi yoki siyosiy qarorlarga ta’sir o‘tkazishni mo‘ljallayotgan sub’ektlar, elitalar, manfaat guruhlari, partiyalar faoliyatini kuzatish.

Demokratiya rivojlangan davlatlardagi siyosiy jarayonlarda ijtimoiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirishi. Siyosiy jarayonlarda kuchli fuqarolik pozitsiyasi. Olib borilayotgan islohotlarga qat’iy ishonch ruhiyatining inson psixologiyasidan ustunlik qilishi. Jamiyatda ilg‘or siyosiy kuchlarni qo‘llab-quvvatlash. Jamiyat taraqqiyotiga to‘g‘anoq bo‘layotgan

siyosiy kuchlarga ishonchsizlik bildirish. Siyosiy jarayonlarga jamiyatdagi ilg‘or yetakchi guruhlarning o‘zaro ta’siri. Hukumatning hatti harakatlari va jamiyat siyosiy tizimining amal qilish shakli. Tadqiqotlarda siyosiy jarayonning mazmuniga nisbatan turlicha yondoshuvlar. Rangli inqiloblar, bir guruh tomonidan amalga oshirilgan davlat to‘ntarishlari, qo‘zg‘olon, isyon kabi jamoaviy norozilikning shakllari emotsiyal aggressivlikning tashkiliy bir ko‘rinishi sifatida. Jamiyat siyosiy hayotida g‘oyalar xilmalligi. Murosalik, ziddiyat, manfaatlar uyg‘unligi, milliy mentalitet, demokratiya, saylov, xalq ishtiroki, bevosita va bilvosita ishtirok etish, siyosiy voqelik, siyosiy tasavvur, siyosiy dunyoqarash, siyosiy e’tiqod. Siyosiy jarayonlarda siyosiy institutlarning ishtiroki. Siyosiy jarayonlar xususiyati va mazmuni. Barqarorlik va beqarorlik. Murosalilik va ziddiyatlilik. Manfaatlar uyg‘unligi. Siyosiy jarayonlarni turli baholash. Unga yondashuv mezonlari va tamoyillari. Siyosiy jarayonlarni idrok etish va yondashishda o‘ziga xos an’analar, milliy mentalitetni hisobga olish.

O‘zbekistonda siyosiy jarayonlar. Uning jahon siyosiy hayoti, siyosiy institutlar va jarayonlar bilan bog‘liqligi. Siyosiy jarayonlarning mamlakat ichki siyosati, hududiy, mintaqaviy va jahon tartibotlaridagi o‘zaro munosabatlari. Siyosiy hayot va jarayonlarning rang - barangligi. Siyosiy institutlar xilma - xilligining siyosiy jarayonlarga ta’siri.

## **SIYOSIY ELITA VA SIYOSIY YETAKChILIK**

Siyosiy elita tushunchasi. Jamiyatnig barcha sohalarida *yetakchilik* fenomenining mavjudligi. Yetakchilik guruhiy faoliyatning integratsiyasi uchun mexanizmning bir turi sifatida. Yetakchilikning turli ijtimoiy guruhlarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi. Inson faoliyati va liderning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Yetakchilikning turli shakllari orasida siyosiy liderlik, siyosiy yetakchilikning muhim o‘rin tutishi. Uning hokimiyat fenomeni bilan bevosita bog‘liqligi. Xalqaro munosabatlarda siyosiy yetakchilik davlatlarning yetakchilik darajasidan kelib chiqishi. Xaqiqiy yetakchi fenomeni. Siyosiy diagnoz va bashoratni, siyosiy xatti-harakatlar taktikasini belgilab berish bilan birga birlashtira olish funksiyalarini bajarish. *Yetakchilik* siyosiy harakatlarga qaratilgan yo‘nalishlardagi boshqaruv. *Yetakchilikning* siyosiy qarorlarni qabul qilish va tahlil qilishdagi o‘rni. Siyosiy faoliyatda o‘zining rolini ko‘rmoqchi bo‘lgan odamlarning tafakkuri va energiyasiga ta’sir qila olish. Hukmdor *yetakchining* obrazi atrofidagi dastlabki qarashlar. G‘arbda Nikolo Makiavelli, Sharqda Forobiyning qarashlari.

Siyosiy hayotda fuqarolar doimiy ravishda ishtirok etish imkoniyatiga ega emasligi. Siyosiy faoliyatda faol ishtirok etish. *Siyosiy elita* – davlat hokimiyatidan foydalanish bilan bog‘liq qarorlarni qabul qiluvchi va amalga oshiruvchi guruh. Ularning hokimiyat uchun ochiq va yashirin kurash davomida shakllanishi va o‘zgarib borishi. Siyosiy elitaning mayjud bo‘lish sabablari. Elitaning hukmon, muxolifatdagi oliy va o‘rta, ma’muriy elitalarga bo‘linishi. Elitani samarali faoliyat yuritishdagi tanlash tizimi. Yuqori mansablarga talabgorlarning elitaning quyi qatlamlardan tanlash. Siyosiy yetakchilik va mamlakat rahbari, rasmiy va norasmiy yetakchi. An’anaviylik, harizmatik, ratsional-oshkora yetakchilik. Konservatorlar, reformatorlar, inqilobchilar, fozil rahbar, rahnama, yurtboshi, mamlakat yetakchisi tushunchalari. Global muammolar va hozirgi davrda siyosiy yetakchilik rivojining yangi tendensiyalari.

## **SIYOSIY MAFKURA VA SIYOSIY MADANIYAT**

Siyosiy mafkuraga oid qadimgi va hozirgi zamonga oid qarashlar. Siyosiy mafkura ijtimoiy borliqni anglatuvchi g‘oyalar, qarashlar konsepsiyalarning tizimi sifatida. Siyosat bu bugungi kunda manfaatlar to‘qnashuvini anglatuvchi va ayni manfaatlar, qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar barobarida yuzaga keladigan hodisaga aylanishi. Muayyan yo‘nalishdagi siyosiy manfaatlarning o‘ziga xosligi. Ularning ayni siyosiy mafkuralar orqali siyosiy hokimiyatga ta’sir qilishda gavdalanishi. Hozirgi paytdagi siyosiy mafkuraning progressiv, liberal, radikal, inqilobiy demokratik, konservativ, reaksiyon, millatchilik, diniy va boshqa shakllari. Ijtimoiy ongda bo‘layotgan siyosiy o‘zini tutishning muayyan mafkuraviy yo‘nalishlari: liberalizm, neoliberalizm, sotsializm, konservativizm, neokonservativizm, natsionalizm. XX asr siyosat olami va liberal, sotsialistik, konservativ va milliy doktrinalarga asoslangan mafkuraviy dominantlar. Diniy mafkura. Bunda siyosiy talablarni oldinga surish va o‘z manfaatlarini dunyo taraqqiyotida hukmronlik qilishida diniy kelib chiqishning umumiy tasavvurlari. Diniy dogmatikadan foydalanuvchi g‘oyalar tizimi.

Siyosiy mafkura funksiyalari. Mafkura bilan siyosat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan hodisa ekanligi. Mafkuraning siyosatni yo‘naltirib turishi. Uning intilishi lozim bo‘lgan muayyan ideallar, qadriyatlar va maqsadlar tizimini ta’minlab berishi. Siyosatning ko‘p jihatdan mafkuraviylashganligi. Jamiyat hayotida avtoritar tendensiyalarning yuzaga kelishi. Sovetlar davlati, fashistik Germaniya kabi davlatlardagi siyosiy-mafkuraviy jarayonlar. Sun’iy ravishda mafkuradan butunlay voz kechish siyosatning ma’naviy resurslariga zarar yetkazuvchi yoki uni zaiflashtiruvchi xolat ekanligi. Zamonaliviy siyosiy mafkuraning ko‘ptabaqali xususiyatlari. Nazariy konseptual (elitar); dasturiy-siyosiy (tashviqot, targ‘ibot) hamda dolzarblastishgan (kundalikdagi) darajalari. Mafkuraning asosiy funksiyalari. Hozirgi paytda siyosiy fanlarda asosiy va keng tarqalgan mafkuralar liberalizm (neoliberalizm), sotsializm (sotsial demokratizm), konservativizm (neokonservativizm), fashizm mafkurasi, totalitar, millatchilik va diniy ekstremistik mafkuralar.

Jamiyatning siyosiy madaniyati va siyosiy mafkura muammolari. Siyosiy madaniyat va siyosiy mafkura mavzusi g‘oyaga qarshi g‘oyalar avjiga chiqqan paytda nazariy va amaliy jihatdan dolzarb bo‘lishi. Jamiyatning siyosiy madaniyatini shakllantirish, uni tubdan isloh qilish orqali jamiyatdagи o‘zgarishlar mohiyati. Shaxsning g‘oyaga qarshi g‘oya tamoyilida tarbiyalanishi, mustaqil fikrlay olish mahorati, ijtimoiy-siyosiy faoliyatda ijodiy ishtiroy etish, murakkab siyosiy vaziyatlarda o‘zligini himoya qila olish, to‘g‘ri qarorlar qabul qilish kabi tarbiyaviy jarayonlar. Siyosiy terminologiya tizimida siyosiy madaniyat tushunchasi. Siyosiy madaniyat masalalariga yondoshuvlarning kuchayishi. Siyosiy madaniyat bu siyosiy bilimlar, qadriyatlar orqali sub’ektning davlatga ta’sir o‘tkazish va siyosiy faoliyatda namoyon bo‘luvchi hodisa ekanligi.

Siyosiy madaniyat jamiyat madaniy tizimining tarkibiy qismi. Siyosiy madaniyatning asosiy mohiyati. Siyosiy madaniyatni tahlil qilishda siyosiy mentalitetni hisobga olish. Siyosiy madaniyatni o‘rganishda milliy harakter tushunchasidan foydalanish. Tarixiy madaniy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy amaliyot. Tafakkurning individual qiyofasi. Siyosiy madaniyatning ijtimoiy-siyosiy tuzumga nisbatan sekinligi.

Har qanday ijtimoiy-siyosiy tizimda siyosiy madaniyat o‘ziga xos modellarining mavjudligi. Siyosiy faollik tadbirlari jamiyatning siyosiy ishtiroyda chuqurlashuvi yoki begonalashuvi va siyosiy madaniyati taraqqiyoti darajasi.

G‘oyaviy kurashchanlik – ma’lum bir shaxsning o‘zi ishongan va aqidaga aylantirgan g‘oyani amalga oshirish uchun kurashish. G‘arbning yuksak texnik madaniyati va

Sharqning ko‘proq tarixiy-an’anaviy madaniyatga sodiqligi. Ikki qutb mamlakatlari, xalqlari orasidagi madaniy-g‘oyaviy kurashchanlik. Turli g‘oyaviy oqimlarning o‘zaro ta’siri, asosiy yo‘nalishlari. Ularning siyosatdagi roli. O‘zbekistonning milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining siyosiy madaniyatini yuksaltirish muammolari. Fuqarolik jamiyatni va huquqiy demokratik davlat qurish kafolatlaridan biri – fuqarolar siyosiy madaniyatini oshirish.

## SIYOSIY ONG

Siyosiy hokimiyat hodisasiga odamlarning munosabatlari. *Siyosiy ong* ijtimoiy ongning bir shakli sifatida. Siyosiy tizimni saqlab qolish yohud beqarorlashtirish yoki o‘zgartirish masalalari uning mazmun-ma’nosida aks etishi bilan bog‘liqligi. Siyosiy ong – inson oldida o‘zining guruhiy manfaatlarini anglash, boshqa ijtimoiy va etnik guruhlarning ehtiyojlaridan qiyoslash, siyosiy hokimiyat institutlarining foydalanish zaruriyatidir. Siyosiy ongda siyosiy institutlarga baho berish. Jamiyat siyosiy ongini shakllantirish. Unda davlat, ayniqsa ommaviy axborot vositalari, siyosiy partiya va ommaviy ijtimoiy tashkilotlar, shaxsiy siyosiy tajriba muhim rol o‘ynashi.

Hozirgi paytda turli xil ijtimoiy siyosiy kuchlar tomonidan bo‘layotgan kurash. Mafkuraviy va psixologik ta’sir. Siyosiy ongning murakkab shakl-shamoyil, daraja va turlarga bo‘linishi. Siyosiy ongning sohalari. Siyosiy-mafkuraviy soha (siyosiy mafkura). Doktrinalar, ideallar, qadriyatlar, paradigmalar, afsonalar va hokazo. Siyosiy nazariya sohasi. Siyosiy psixologik soha (siyosiy psixologiya): siyosiy intilishlar, orzu-umidlar, siyosatga nisbatan bo‘lgan his-tuyg‘ular, kayfiyat, fikr, ongsiz holatda yuz beradigan siyosiy hatti-harakatga ta’sir qiluvchi ruhiyat.

Siyosiy ongning tarkibiy qismi. Siyosiy psixologik fenomenlar. Emotsiyalar, his-tuyg‘ular, qarashlar va siyosatga ehtiyojlilik darajasi. Siyosiy-mafkuraviy yo‘nalishlar. Konservativ, sotsialistik va liberal ong. Liberal, o‘ng radikal, chap radikal va hokazo ko‘rinishlar. Siyosiy rejim va partiyaviy pozitsiyalar. Uning demokratik, avtoritar, totalitar va boshqa shakllari. Siyosiy ongning milliy va diniy xususiyatlari. Siyosiy ongda milliy g‘oya. Urush, tinchlik, atrof muhitni asrab avaylash kabi global muammolarning yangicha siyosiy tafakkurni talab etishi. Siyosiy tasavvur va guruh ongi. Siyosiy madaniyat va milliy o‘zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlar uygunligi. Milliy siyosiy ong va jahon tarakkiyoti; o‘zaro bog‘liqligi. Demokratik siyosiy ong va totalitar ong. Siyosiy ong, siyosiy murosa madaniyati. Siyosiy ongda umum davlat manfaati muammosi. Milliy istiqlol va siyosiy ong.

## SIYOSIY TIZIM VA SIYOSIY BOSHQARUV

“Siyosiy tizim” tushunchasi. Mustaqillik va siyosiy tizimning o‘zgarishi. Siyosiy tizimni shakllantirishda milliy davlatchilik negizlariga tayanish va an’analarni hisobga olish amaliyati. Hokimlik institutining tiklanishi. O‘zbekistonning siyosiy tizimi. Siyosiy tizim elementlari: davlat, Prezidentlik instituti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Sud hokimiyati, siyosiy partiyalar. Milliy davlatchilikni barpo etish. O‘zbekistonda “Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” konsepsiysi, uni amalga oshirish mexanizmi va usullari. Siyosiy tizimning demokratiyalashuvi. Ko‘p mandatlik. Muqobililik. Ko‘ppartiyaviylik. Siyosiy raqobat maydoni. Davlat va nodavlat tashkilotlar, ularning munosabati. Mahalliy hokimiyat. Fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish vazifalarining kengayishi. Nodavlat va jamoat

tuzilmalari. Ularning o‘zaro munosabati. Siyosiy tizim tuzilish “modellari” va unga turli xil yondashuvlar. Jahonda davlat hokimiyatini idora etish shakllari: Monarxiya, Respublika. Monarxiya ko‘rinishlari: mutlaq monarxiya, cheklangan monarxiya. Respublika shakllari: demokratik, aristokratik (qadimgi), parlament, Prezidentlik, Qo‘shma (aralash) respublika. Davlatning tuzilishi: unitar davlat, federatsiya. Siyosiy rejimning demokratik yoki avtoritar ekanligi. O‘zbekistonda davlat hokimiyatini idora etishning shakli. Prezidentlik Respublikasi. Siyosiy tizimning tarkibi: a) tarkibiy tizimi (davlat, partiylar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar); b) madaniy-mafkuraviy tizim (siyosiy, madaniy, mafkuraviy va jamoatchilik fikri); v) Normativ tizim (siyosiy-huquqiy, tashkiliy, axloqiy-siyosiy normalar); g) Axborot kommunikativ (ommaviy axborot vositalari, kommunikatsiyalar, ilmiy-axborot infratuzilmalari). Siyosiy tizim va siyosiy jarayonlarning uzviy bog‘liqligi hamda rivoji.

Fuqarolik jamiyatining shaxs uchun keng imkoniyatlar yaratishi. Fuqorolik jamiyatining muhim sifatlari. Shaxsning, aholining alohida guruhlari va davlatdan mustaqilligi. Tashkiliy yaxlitlik, bir butunlik. Davlat tomonidan himoya qilinadigan huquqlarga asoslangan “korporativlik. Liberallashish bilan bog‘liq jarayonlar. Avtokratiyaning despotik kuch sifatida (demokratik natijalar asosida) zaiflashuvi. Fuqarolik jamiyati bilan demokratiyaning o‘zaro aloqadorligi. Siyosatda demokratiyani ta’minlaydigan hamkorlik. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo qilish g‘oyasi. Fuqarolik jamiyati qurishga intilish. Madaniy, ma’rifiy, tarixiy jihatdan asrlar mobaynida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni shakllangan an’analari. O‘zbekiston uchun o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘lini tanlash, yangi jamiyat barpo qilish uchun o‘z andozasini ishlab chiqishning ahamiyati.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurishning “o‘zbek modeli” – soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojiali oqibatlarsiz va ijtimoiy larzalarsiz, evolyusion yo‘l bilan dinamik taraqqiyot yo‘liga o‘tuvchi – tanlab olingan yo‘l. Jamiyat siyosiy rivojining, iqtisodiy taraqqiyotining, ma’naviy poklanishining asosiy yo‘l-yo‘riqlari. Davlatning islohotlarni o‘tkazishdagi rahnamolik roli. Jamiyatning moddiy, ma’naviy va ijtimoiy imkoniyatlarini safarbar etish. O‘rtta hol sinfni shakllantirish. Xalqaro hamkorlikni yanada takomillashtirish masalalari. Adolatli, xalqchil, insonparvar jamiyat sari siyosiy strategiya. Xalq ham bevosita, ham o‘z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to‘liq ishtirok etishi lozimligi. Xokimiyat bo‘linishining jahon tan olgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linish tamoyilini joriy etish asosida demokratiyani chuqurlashtirish hamda milliy davlatchilikni barpo qilish. Jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarining tuzilmasini tubdan yangilash. Barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini va qonunning ustunligini ta’minlash. Mafkuraning, dunyoqarashning yakka hokimligidan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olish. Demokratiyaning qonuniy tarkibi sifatida ko‘ppartiyaviylikni shakllantirish. O‘zbekiston Respublikasining teng huquqli fuqarosi bo‘lishga erishish. Ma’naviyatni qayta tiklash. O‘zbek tilini rivojlantirish. Xurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirish. Ijtimoiy adolat qoidalari. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik, hududiy daxlsizlik va milliy xavfsizlik, tarixiy, milliy va axloqiy qadriyatlar hamda an’analarning tiklanishi, iqtisodiy taraqqiyot, shaharsozlik sohasidagi olamshumul o‘zgarishlar, siyosiy hayotning erkinlashuvi. Davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish. Fuqarolik jamiyati asosini jamoat tashkilotlari tashkil etishi. Ombudsman, Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz, “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazi, amaldagi

qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va boshqa bir qator tashkilotlar faoliyati. "Jamoat fondlari to'g'risida"gi, "Homiylik to'g'risida"gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror va boshqa qator hujjatlarning qabul qilinishi.

Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartlaridan biri. Inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkoraliyini, jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiqligini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarni amalda joriy etish. Jamiyat xayotida nodavlat va notijorat tashkilotlarining o'rni va rolini oshirish, ularning faoliyat doirasini kengaytirish orqali fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarini chuqurlashtirish. Sud-huquq sohasini isloh qilish, sud-huquq idoralarining mustaqilligi va ta'sirchan faoliyatini ta'minlash, qonun ustuvorligini, inson haq-huquqlarini, erkinliklarini himoya qilish, huquq organlarini "jazolovchi" organlardan fuqaro manfaatini himoya qiladigan, uni erkin yashashiga kafolat beradigan organlarga aylantirish.

"Inson qadri uchun" tamoyili – barcha islohotlarning asosi. "Inson – jamiyat – davlat" tizimi.

## **SIYOSIY PARTIYALAR VA O'ZBEKISTONDA JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISH**

Siyosiy partiyalar. Demokratiyada siyosiy partiyalarning o'rni. Zamonaviy demokratiyaning partiyasiz xech qanday ma'noga ega emasligi. Partiya so'zining ma'nosi. Zamonaviy demokratik davlatlarda siyosatni aholining ko'pchiligi tomonidan qo'llanayotgan siyosiy partiyalar belgilab berishi. Saylovchilarining ovozlari uchun kurash. Tinchlik yo'li bilan hokimiyat tepasiga kelish. Siyosiy partiya siyosiy ta'sir o'tkazishning asosiy manbasi. Partiya yetakchilarini hokimiyat tepasiga olib keluvchi mexanizm. *Siyosiy partiyalarning jamiyatdagi vazifalarini o'rganish*. Siyosiy partiyalarning funksiyalari. Maqsadlarni aniqlash. Ijtimoiy manfaatlarni kuchaytirish va ifodalash. Tizim miqyosida, ayniqsa, saylovlarda jamoatchilikni safarbar etish va ularning ijtimoiylashuvini ta'minlash. Elitani tanlash va hukumatni shakllantirish. Siyosiy partiyaning ichki va tashqi funksiyalari.

Partiya va uning rahbariyatining nafaqat o'ziga yaqin bo'lgan qatlam va doiralar, balki yangidan yangi saylovchilarini o'z bayrog'i atrofida birlashtira olish qobiliyati. Partiyaning tashkilotchilik funksiyasi. Davlat va jamoat tashkilotlarida hamda partiyaning o'zida kadrlarni tanlash masalasi. Partiyalarning asosiy harakteri. Fuqarolarga tushunarli holatda jamiyatdagi mavjud muammolar, qarama-qarshiliklar va mojarolarni hal qilish yo'llari. Partiya elektorati. Zamonaviy siyosiy partiyalarning bugungi ahvoli. Siyosiy hayot va ko'p partiyalik omili. "Ko'p partiyaviylik" tushunchasi. Siyosiy jarayonlarda siyosiy partiyalarning o'rni. Siyosiy hayotning demokratiyalashuvi va ko'p partiyalikka o'tish. Siyosiy hayotning demokratiyalashuvida siyosiy partiyalar mavqeining oshib borishi.

## **DEMOKRATIYA VA SAYLOVLAR TIZIMI**

Demokratiya va adolatli huquqiy davlat barpo etish. Saylovlar tizimi va unga siyosiy-xuquqiy tadbirlar belgilash zarurati. O‘zbekiston Konstitutsiyasi saylovlar tizimining muhim kafolati. Saylovlar boshqaruvda demokratik tamoyillarining amaldagi ifodasi. O‘zbekistonda jamiyat rivojlanishining strategik yo‘nalishlari. Fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatlanishi. Saylovlar tufayli O‘zbekistonda islohotlarni amalga oshirishning izchil xuquqiy mexanizmini yaratish. Davlat qurilishi va boshqaruvining sohasidagi eng muhim vazifalar. Demokratiyani chuqurlashtirishda mamlakat Parlamentining roli va ta’sirini kuchaytirish. Hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o‘rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishish muammolari. Qonunchilik palatasi. Bosh vazir va umuman, mamlakat hukumatining rolini va shu bilan birga, ma’suliyatini kuchaytirish. Sud hokimiyatining mustaqilligi va erkinligini mustahkamlashga qaratilgan aniq, qonuniy chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Yoshlarni vatanga sadoqat va fidoyilik fazilatlarini kamol toptirishda saylovlarining ahamiyati. Uning siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy tarbiya vositasi ekanligi. Qonun ustuvorligi tushunchasi va uning mohiyati. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin o‘ziga xos bo‘lgan taraqqiyot yo‘lini – ya’ni, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan, erkin, ochiq demokratik davlat qurish vazifasining asosiy maqsadi. Haqiqiy demokratiya – qonunlar diktaturasi. Huquqiy demokratik davlat barpo etishda Ombudsman instituti. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini ta’minalashni amalga oshirishda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)institutining roli. Jinoiy jazolarni liberallashtirish – qonun ustuvorligining muhim sharti. O‘lim jazosining bekor qilinishi. Qonun ustuvorligini ta’minalash – huquqiy davlat barpo etishning asosiy mezoni.

## FUQAROLIK JAMIYATI VA OAV

Fuqarolik jamiyat g‘oyasi oliy maqsad sifatida. Fuqarolik jamiyatni rivojlantirish va OAV faoliyati. So‘z va matbuot erkinligi. OAVni erkinlashtirish. OAV imkoniyatlaridan foydalanish zarurati. O‘zbekiston tanlagan yo‘l – inson manfaatlari to‘la himoya qilingan, uning erki, ozodligi har tomonlama huquqiy kafolatlangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘li. Yangi tuzum g‘oyalari va jamiyatni yangilash zarurati. Xar bir fuqaro taqdiriga, ma’naviy va ruhiy ehtiyojiga, asrlar mobaynida shakllangan turmush tarzi va dunyoqarashiga bog‘liq bo‘lgan, uni har jihatdan himoya qiladigan fikrlar. Fikriy boqimandalikning ko‘rinishlari. Ijtimoiy yangilanishlar muvaffaqiyati. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish tamoiylari va maqsadi – yangilanishlar tizimini hayotga joriy etish va chuqurlashtirish. Fuqarolarni demokratik jarayonlarni tashkil etuvchi, boshqaruvchi hamda faol himoyachisi sifatida tayyorlash omillari. Mustamlakachilik davri illatlaridan qutulish azobi. Inson ongi va qalbi bilan bog‘liq bo‘lgan, uni isloh qilish, tirik, mavjud insonni “yangi”lash, ma’naviy-ruhiy “ta’mirlash” kabi sermashaqqat yo‘l. Aholining siyosiy faolligini kuchaytirish. Jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o‘rtasida muvozanatni ta’minalaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarurligi. Jamiyatni erkinlashtirish orqali odamlarning saylovlargacha munosabatini o‘zgartirish. Odamlarga o‘z manfaatlarini va maqsadlarini amalga oshirish, xaq-huquqlarini himoya qilish uchun saylovlarda ishtirok etish zarurligini anglatish lozimligi. Saylash va saylanish huquqi. O‘zbekistonda saylovlar o‘tkazishning demokratik tamoyillari.

Davlatning o‘z vakolatlarini asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlari zimmasiga o‘tkazishi, fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlarining

rolini oshirib borish orqali demokratik jarayonlarning chuqurlashtirish tamoyili. Mamlakatning siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirishning yangi konsepsiyasini ishlab chiqilishi. Demokratik institutlar faoliyatlarini ko‘lamlarini kengaytirish. Aholining siyosiy faolligini kuchaytirish va siyosiy madaniyatni oshirish. Jamiyatda manfaatlar, turli xil qarashlar, siyosiy va e’tiqodiy raqobatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash. Jamoat birlashmalarining hozirgi bosqichdagi ijtimoiy mavqeini oshirish. Siyosiy partiylar faoliyatini takomillashtirish. Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish. Davlat qurilishini erkinlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish. Hokimiyat bo‘linishi prinsipining insoniyat tomonidan umum e’tirof etilgan tamoyillarini amalda qo‘llash. Davlat hokimiyati organlarining vakolatini nodavlat va jamoat tashkilotlariga o‘tkazish.

## XALQARO TERRORIZM VA DINIY EKSTREMIZM

Terrorizm xatti-harakatlarining mazmuni va mohiyati. Xalqaro terrorizm. Uning siyosiy, iqtisodiy, diniy, g‘oyaviy, irqiy, milliy, ruhiy va individual shakllari. Terrorchilik harakatlarining xalqaro xuquq himoyasidagi ob’ektlar yoki sub’ektlarga qarshi qaratilishi. Davlatlar chegaralarini buzish orqali amalga oshirilishi. Ekstremistik guruxlar tarkibida qo‘poruvchilik xarakatlari bo‘yicha xorijliklarning qatnashishi. Ekstremistik gurux a’zolarining boshqa davlatlar xududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko‘rishi. Qo‘poruvchilikni sodir etishda xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog‘ savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanishi.

Xalkaro terrorizmga qarshi kurashda BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti sammitidagi yig‘ilishlarda O‘zbekiston Prezidentining bildirgan tashabbuslari. O‘zbekiston MDHdagi aksilterror markazining faol qatnashchisi. ShHT doirasidagi Aksilterror markaz. “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida” va 2004 yilda “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlar.

Ekstremizmning mazmuni. Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va me’yorlarga zid qarashlarni ilgari surish, keskin qarashlar va chorralarga moyillik ekstremizmning asosiy xususiyati ekanligi. Soxta aqidaparastlikka asoslangan siyosiy, diniy ekstremizm. Diniy ekstremizmning hududiy, mintaqaviy va xalqaro shakllarga bo‘linishi. Din niqobi ostida yuksak ma’naviy tamoyillarga zid ravishda yovuz maqsadlar yo‘lida kuch ishlatish. Odamlarni garovga olish va o‘ldirish. Ijtimoiy ob’ektlarni portlatish, kishilar ongi va ruhiyatiga qo‘rquv, vahima solish.

Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurash. Jaholatga qarshi kurashish, qabohatni barbod etish, insoniyat hayotini turli tahdid va tahlikalardan halos etish. Yoshlarimizning barkamol bo‘lishi, milliy qadriyatlar asosida tarbiya topishi, mavjud diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi ma’naviyatlari va ma’rifatli bo‘lishning o‘ziga xos talablari. Xalqaro terrorizmga barham berishning huquqiy va siyosiy me’yorlar tizimini mukammallashtirish va qayta ko‘rib chiqishga bo‘lgan ehtiyoj. Terrorizmning agressiv millatchilik, diniy ekstremizm xalqaro jinoyatchi guruqlar bilan yaqinligi. Narkobiznes. Terrorizmning mafkuralashuvi va siyosiylashuvi.

## JAHON SIYOSATINING MILLIY VA UMUMBASHARIY TAMOYILLARI. XXI ASRDA DUNYO VA INSONIYAT ISTIQBOLI

Jahon siyosati tushunchasi. Jahon siyosati, uning sub'ektlari. Davlatlar, xalqaro hukumatlararo va nohukumatlararo tashkilotlar, ittifoqlar, harakatlar. Jahon siyosati sohasi davlatlararo va davlatlar ustidan nazorat qiluvchi tashkilotlar siyosiy munosabatlari maydonida. Jahon siyosatining asosiy elementlari. Jahon siyosatining asosiy muammolari. Insoniyat oldida turgan umumiy muammolarni hal qilish zarurati. Jahon siyosiy tizimi va jahon siyosatining asosiy sub'ektlari. Xalqaro hayotga ta'sir o'tkaza olishning asosiy vositalari. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN), Yevropa Ittifoqi (Yel), Arab mamlakatlari ligasi (AML), Amerika davlatlari tashkiloti (ADT), Afrika birligi tashkiloti (ABT), Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO), Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YeXHT), Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) va boshqalar.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Butunjahon kasaba uyushmasi federatsiyasi, Xalqaro valyuta fondi. Xalqaro harakterdagi siyosiy shartnoma va kelishuvlar. Yadro asrida *jahon siyosati*. Zamonaviy sharoitlarda xalqaro terrorizmga qarshi kurash muammolari. Jaxon siyosatida milliy manfaat masalasi. Jahon siyosatida ko'pimcha insoniyat oldida turgan maqsad va umumiy vazifalarni hal qilish. Davlat tashqi siyosatining ustuvor yo'naliishlari. Mamlakatimizning xalqaro siyosat maydonida olib borayotgan tashqi siyosatining natijalari. Uning ustuvor yo'naliishlarini belgilashda dunyoda va mintaqada vujudga kelayotgan murakkab va ziddiyatli vaziyatlar. O'zbekiston tashqi faoliyatining asosiy yo'naliishlari, mintaqaviy barqarorlik, rejalarshirish, tizimlashtirish, kuch ishlatishdan voz kechish, siyosiy vazminlik, realizm, chidamlilik, muzokara yo'li, oldini olish, tegishli choralarни ishlab chiqish. "Xalqaro tizim" va "xalqaro siyosat" tushunchasi. Uning bir butunligi, faoliyatida mutanosiblik, muvozanatni saqlash manfaatlari.

## TAVSIYA ETILADIGAN SAVOLLAR

1. Siyosatshunoslik fani, predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Siyosatshunoslikning ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Mustaqil O‘zbekistonda siyosatshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishi.
4. Siyosiy ta’limotlarning shakllanishi va rivojlanishi.
5. Siyosiy madaniyat va mafkura.
6. Siyosatshunoslik fanida milliy va umuminsoniy qadriyatlar munosabati.
7. Demokratiya va siyosiy manfaatlar uyg‘unligi.
8. O‘zbekistonda va dunyodagi siyosiy jarayonlar tahlili, baholash va bashorat qilishda siyosatshunoslik fani rolining oshib borishi.
9. O‘zbekistonda siyosiy qarashlarning ilk manbalari va negizlari.
10. Xalqning siyosiy tafakkuri va ongida siyosiy hokimiyat va uni boshqarish to‘g‘risidagi tasavvurlar.
11. Siyosiy qarashlarning shakllanishida qadimgi, o‘rta, yangi davrlar.
12. Siyosiy qarashlar shakllanishida XIX-XX asr siyosiy qarashlari hamda mustaqillik davri.
13. Jadidchilikda ma’rifatparvarlik, siyosiy qarashlar va istiqlol g‘oyasi.
14. Prezident Sh.M.Mirziyoyev nutqlari va asarlarida yangi siyosiy qarashlarning rivojlantirilishi.
15. Siyosiy rejim va siyosiy jarayon tushunchalari.
16. Siyosiy hayot va manfaatlar tizimi.
17. Siyosiy jarayonlarda barqarorlik va beqarorlik.
18. O‘zbekistondagi siyosiy jarayonlarning jahon siyosiy hayoti, siyosiy institut va jarayonlar bilan bog‘liqligi.
19. “Siyosiy tizim” tushunchasi.
20. O‘zbekistonda siyosiy tizim va uning elementlari.
21. Siyosiy tizimning demokratiyalashuvi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
22. Davlat va nodavlat tashkilotlar hamda ularning faoliyati.
23. Siyosiy tizim tuzilish modellari va unga oid turli xil yondoshuvlar.
24. Jahonda davlat hokimiyatini idora etish shakllari.
25. O‘zbekistonda davlat hokimiyatini idora etish shakli.
26. Siyosiy tizimning tarkibi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
27. “Inson qadri uchun” tamoyilining mohiyati

### **Kirish imtihonlari natijalarini baholash mezonlari**

Imtihonni baholash uchun maksimal baho – 100 ball etib belgilanadi.

JAMI 4 ta savolga: 100 ball, shundan:

- |                           |            |
|---------------------------|------------|
| 1-savolga javob: maksimal | – 25 ball; |
| 2-savolga javob: maksimal | – 25 ball; |
| 3-savolga javob: maksimal | – 25 ball; |
| 4-savolga javob: maksimal | – 25 ball. |

Har bir savol bo‘yicha javoblarni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- nazariy va amaliy bog‘liqlikda yoritilgan;

- mazmunni yoritishda mustaqil ilmiy mushohada;
- nom va ilmiy atamalarni bilish darajasi;
- ilmiy mushohada yuritish iqtidori to‘la ko‘rinsa;
- keltirilgan faktlar hozirgi davrdagi jarayonlar, o‘zgarishlar bilan o‘zaro aloqadorlikda ohib berilgan, chuqur ilmiy tahlil etilgan hamda xronologik jihatdan to‘g‘ri yoritilgan;
- o‘z fikrini tizimli mustaqil tahlil qilgan, erkin va mustaqil ifoda eta olgan;
- fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to‘liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlarida bayon qilingan tamoyillar va xulosalarga har tomonlama chuqur asoslangan javoblarga **a’lo** baho qo‘yiladi.

Barcha savollarga nisbatan to‘liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e’tibor berilgan bo‘lsa, **yaxshi** baho qo‘yiladi.

Barcha savollarga qisman javob bera olgan va ma’lum darajada ilmiy, o‘quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan bo‘lsa, **qoniqarli** baho qo‘yiladi.

Fikr aniq ifoda etilmagan, bironta ham savolga qisman bo‘lsada to‘g‘ri javob berilmagan, tegishli ilmiy, o‘quv-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanilmagan javoblar uchun **qoniqarsiz** baho qo‘yiladi.

## **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т. : “Ўзбекистон”, 2023 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февральдаги Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон
3. Мирзиёев Ш.М. Тинчлик, маърифат ва бунёдкорлик йўлида ҳамкорлик. Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидағи нутқ // Халқ сўзи. – 2016. – 19 окт.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқи // Халқ сўзи. – 2017. – 20 сент.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги Давлат раҳбарлари кенгашидаги нутқи // Халқ сўзи. – 2017. – 13 окт.
6. Каримов И. А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т. :Ўзбекистон, 1992 й.
7. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида, хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т. : “Ўзбекистон”, 1997 й.
8. Каримов И. А. Юксак маънавият - енгилмас куч. Т. : “Маънавият”, 2008 й.
9. Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. -Т. : “Ўзбекистон ”, 2010 й.
10. Каримов И. А. Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажагимизнинг гаровидир. Т. :Ўзбекистон, 2012 й.
11. Каримов И. А. Демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш-мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т. 19. Т. : Ўзбекистон, 2011 й.
12. Алиев Б. А, Хошимов Т. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. – Т. : “ТДИУ”, 2006 й.

13. Алимов Р. М. Центральная Азия: общность интересов. Т. : Шарқ, 2005 г.
14. Ачкасов В. А. Готорова В. А. Политология. М. : Высшее образование, 2007 г.
15. Аристотель. Политика. Соченение 4 томах. Т. 4. М. , 1983 г.
16. Безвыкованная Е. В. Системно-синергитическая модель политической системы. //Полис, №3 – 2009 г.
17. Гаджиев К. С. Политология. М. :Логос, 2003 г.
18. Горелов А. А. Политология в вопросах и ответах. М. : «Эксемо», 2007.
19. Гуторов В. А. Философия политики на рубеже тысячелетий: судьба классической традиции. //Полис, №1 – 2001 г.
20. Даймонд Л. Прошлали. “Третья волна” демократизации?//Полис, 1999 г. №1.
21. Даль Р. О демократии. – М. : “Аспект Пресс”, 2000 г.
22. Дектярев А. А. Основы политической теории. - М. : «Высшее школа», 1998.
23. Демидов А. И. Политология. - М. :«Гардарики», 2006 й.
24. Дюверже М. Политические партии. – М. :“Парадигма”, 2005 й.
25. Жумаев Р. З. Политическая система Республики Узбекистан: становление и развитие. – Т. :“Фан”, 1996 й.
26. Инглхарт Р. Постмодерн:Меняющиеся ценности и изменяющиеся общества//Полис. №4. 1997 г.
27. Исҳоков М. М. Авеста: “Видевдот” китоби. Т. 2007 й
28. Лейпхарт А. Демократия в многосоставных обществах: сравнительное исследования. М. : Аспект Пресс, 1997 г.
29. Лукин В. Н. , Мусиенко Т. В. , Федорова Т. Н. Политология. Москва-Санкт-Петербург. 2007 г
30. Назаров К. , Жўраев С. , Жумаев Р. ва бошқалар. Ўзбекистон сиёсий ислоҳотлар жараёни. Т. : Академия, 2011
31. Макиавелли Н. Государь. М. : Планета, 1990 г.
32. Махмудов Т. “Австо” ҳақида. Т. :Шарқ нашриёти, 2000 й.
33. Махмудов Р. Обеспечение безопасности и стабильности на пространстве ШОС (Правовая база и перспективные направления взаимодействия)//Материалы Шестого заседания Форума Шанхайской организации сотрудничества. Т. : ИСМИ при Президенте Республики Узбекистан, 2011 г.
34. Мельвиль А. Ю. Опыт теоретико-методологического синтеза структурного и процедурного подходов к демократическим транзитам//Полис, №2. 1998 г.
35. Низомулмулк. Сиёсатнома ёки Сияр ул-мулук. Т. :“Адолат”, 1997 й.
36. Политические институты на рубеже тысячелетий. Дубна: 000 «Феникс». 2001 г.
37. Радугин А. А. Политология. М. : 2008 г.
38. Растроу Д. А. Переходы к демократии: Попытка динамической модели. // Полис, №5. 1996.
39. Сайдуллаев А. , Аминов Б. , Мовлонов У. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т. : Академия, 2000 й,
40. Сергеев В. М. Проблема власти. //Полис, №2. 2008 г.
41. Степаняну М. Т. Восточные сценарии глобального мира//Вопросы философии. -№7, 2009 г.
42. Темур тузуклари. Т. :Faфур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991 й.
43. Узбекистан: модернизация и развитие политической системы. – Т. : “Академия”, 2009.
44. Хожа Самандар Термизий. Дастур ул-мулук. (Подшоҳлар учун дастур) Т. : “Шарқ”, 2001 й.
45. Фойибназаров Ш. Халқаро терроризм: илдизи, омиллари ва манбаи. Т. : Ўзбекистон, 2009 й. 97 бет.

46. Курбонов Д. Урегулирование афганской проблемы: инициатива Республики Узбекистан по формированию миротворческой группы «6+3» //Материалы Шестого заседания Форума Шанхайской организации сотрудничества. Т. : ИСМИ при Президенте Республики Узбекистан, 2011. 112 стр.
47. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мағкуралар, маданиятлар, - Т. : “ШАРҚ”, 1998.
48. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: назария ва хорижий тажриба. – Т. : “Янги аср авлоди”, 2006.
49. Қодиров А. Политология (курс лекций). – Т. : “ТГЮИ”, 2006.

